

2022-yil 8-avgust

“KPMG” xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda seminar o‘tkazildi



“O‘zkimyoanoat” AJ va tarmoq korxonalari rahbarlari, ularning iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosarlari hamda bosh buxgalterlari uchun “KPMG” xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda “Kompaniya ma’lumotlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq taqdim etish” mavzusida seminar o‘tkazildi.

Mazkur seminar “O‘zkimyoanoat” AJ va tarmoq korxonalarining 2020-yil 31-dekabr holatiga konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotining xalqaro katta to‘rtlikka (Big 4) kiradigan «KPMG» xalqaro auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkazilayotgan auditi doirasida bo‘lib o‘tdi.

Tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad Jamiyat va tarmoq korxonalari rahbarlari, ularning iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosarlari hamda bosh buxgalterlarining MHXSga muvofiq tuzilgan moliyaviy

hisobotlarni tushunish malakalarini shakllantirish hamda kompaniyalarning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini tahlil qilish ko'nikmalarini yanada oshirishdan iborat.

Yakunda ishtirokchilarga maxsus sertifikatlar topshirildi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz, "KPMG" dunyodagi eng yirik professional xizmatlar tarmoqlaridan biri bo'lib, katta to'rtlikka (Big 4) kiruvchi auditorlik kompaniyasi hisoblanadi. Xalqaro shtab-kvartirasi Amstelvenda joylashgan kompaniyada 219 000 dan ortiq xodim faoliyat yuritadi.









“O‘zkimyo sanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyo sanoat.uz/oz/press/news/kpmg-xalqaro-konsalting-kompaniyasi-bilan-hamkorlikd-a-seminar>